

Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi  
Axborot-bibliografiya xizmati

*Adabiyotshunos olim Naim Karimov  
tavalludining 90 yilligiga*

# ***ILM VA IZLANISHGA BAXSHIDA UMR***

TAVSIYA RO'YXATI



*Andijon - 2022*

## Kirish

Olim chinakam ilmga butun borlig'ini baxshida etmaguncha haqiqatni topa bilmaydi. Haqiqat ovozlari esa bugun yuraklarimizni yashnatadi. Agar ilm insonning umr mazmuniga aylansa, bu izlanishlar, tadqiqotlar, tushunish va tushuntirishlarda fayz, zavq va shavq bo'ladi. Odamlar qalbiga adabiyot nurini olib kirishdek mayoq - olimning ilmiy faoliyatni ich-ichidan yoritib turadi.

O'zbek adabiyotshunoslik fanining eng zabardast olimlaridan biri Naim Karimovning nomini eshitmagan, olimning kitob, risola, maqolalarini o'qimagan, televidenie orqali tayyorlangan juda ko'plab ko'rsatuvlardagi chiqishlarini tinglamagan yurtimizda xonodon bo'lmasa kerak. Ko'p qirrali ilmiy faoliyat olib borgan akademik olim – Naim Karimov o'z ongli umrining butun mazmunini adabiyotshunoslik ilmiga bag'ishladi. Nina bilan quduq qazidi, adabiyot ixlosmandlari qalbiga ziyo ulashdi. Naim Karimov kitoblaridan Oybek, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, SHayxzoda, Mirtemir – ne-ne jonlar, imonlar, e'tiqodlar, fidokorlarning o'tli sasi keladi!

Naim Karimov mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko'lamli izlanishlar olib borgan olim, mamlakatimizda "SHahidlar xotirasi" jamg'armasi hamda Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyiga asos solinishiga katta hissa qo'shgan arbobdir.

Ushbu bibliografik qo'llanma Naim Karimov tavalludining 90 yilligigi munosabati bilan tuzilgan bo'lib, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

## ***XX ASR O'ZBEK ADABIYOTINING TUGAL QIYOFASINI YARATA OLGAN OLIM***


Adabiyotshunos olim Naim Fatihovich Karimov 1932 yilning 12 dekabrda Toshkentda ziyolilar oilasida tug'ilgan. Akademik Naim Karimovning ilmga, adabiyotga qadami O'zbekiston Milliy universitetidan boshlangan. 1950 yili O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ga o'qishga kirgan bo'lsa, tez orada ustozlar-yu boshqa talabalarning e'tirofiga tushgan. Talabalik yillari professor Ozod Sharafiddinovdan olgan saboqlari beiz ketmagani uchun bo'lsa kerak, ilmiy tadqiqotlariga "ob'ekt" ni XX asr o'zbek adabiyoti deb belgilagan va adabiyotimizning mana shu jabhasiga sadoqat bilan xizmat qildi.

Universitetni tamomlashi bilanoq bu iste'dodli va zahmatkash talabani universitet aspirant sifatida bag'riga oldi. U adabiy tadqiqotchilik, adabiy izquvarlik, ziyoliparvarlikni kasb qilib tanladi. Bu kasbni jon-dildan sevdi: tole uni Fanlar akademiyasiga, ilmiy-tadqiqotlar instituti dargohiga yetaklab keldi, orzu-istik, maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun yaxshi sharoit va yo'llar ochildi. Tez orada u adabiyotshunoslik ilmi sohasida qimmatli mutaxassisga aylandi. Akademiya uni olimlar, safdoshlar, tengdoshlar, maslakdoshlar davralariga, qizg'in adabiy jarayonlar ichiga olib kirdi. U Oybek, G'ofur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Zulfiya, Muzayyana Alaviya, Izzat Sulton, Hodi Zarif, Porso Shamsiev, Aziz Qayumov, Ozod Sharafitdinov, Hamid Sulaymon, Fozila Sulaymonova, Mahbuba Qodirova, Sabohat Azimjonova Yusuf Sulton suhbatlari va tarbiyalarini ko'rdi. Adabiy matnlar, qo'lyozmalar ustida ishslash, tahrir ilmini o'rgandi.



Atrofida faol olim tadqiqotchilar davrasi-zamondoshlari paydo bo'ldi : Baxtiyor Nazarov, Ninel' Vladimirova, Salohiddin Mamajonov, To'ra Mirzaev, Ra'no Ibrohimova, Sobir Mirvaliev, Suvon Meliev kabi qator-qator adabiyotshunos olimlar O'zbekistonda ilm taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar. Zamon adabiyotining ijodkorligining dolzarb muammolarini ko'tarib chiqdilar.

Naim Karimov til va adabiyot instituti kichik ilmiy xodimligidan akademikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. "Hamid Olimjon poetik mahoratining ba'zi masalalari" mavzusida nomzodlik, "XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyot tendentsiyalari va milliy istiqlol mafkurasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Avval professor, keyin akademik bo'ldi.

Naim Karimov "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi rayosati raisi, Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasi xotirasini abadiylashtirish komissiyasi raisi va Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori etib tayinlandi. Aslida olim va tadqiqotchi Naim Karimov uchun ish endi boshlandi. Shu kundan boshlab arxiv va muzey ma'lumotlarini titkilab, nohaq qurbon bo'lgan yurtimiz fidoyilari haqida yuzlab ma'lumotlarni yuzaga chiqardi. Birgina shu faoliyatining o'zi millat oldidagi farzandlik burchini bajarishga kifoya qilar edi. Biroq olim qaysi vazifada bo'lmasin adabiyot ilmidan uzoqlashmadni, nasrimiga "ma'rifiy roman" tushunchasini olib kirib "Cho'lpon", "Maqsud Shayxzoda", "Mirtemir" asarlari orqali bu buyuk adiblarga romaniy haykal qo'ydi.



“XX asr adabiyoti manzalari”, “Katta qirg’in”ning kelib chiqish sabablari va omillari”, “Adabiyot va tarixiy jarayon” kabi fundamental tadqiqotlar yaratdi.



Mana, bir necha yildirki, Naim Karimov mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish ustida ish olib bormoqda. U “Shahidlar xotirasi” memorial majmuasiga hamda “Qatag’on kurbonlari xotirasi” muzeyiga asos solinishida ko’p hissa qo’shgan. “Qatag’on kurbonlari xotirasi” muzeyi yaratilishi og’ir ish bo’lgan, zero, o’sha vaqtlar suratlari, qo’lyozmalari, hujjatlari, kiyim-kechaklari va boshqa ashyolarni topish qiyin bo’lgan.

Shunga qaramay, eksponatlar topilgan va muzey belgilangan vaqtida ochilgan.

Mustaqillik davri Naim Karimov ijodining alohida bosqichini tashkil qiladi. Qatag'on dovuliga duch kelgan ziyolilar boshidan kechgan qismat tarixi bo'yicha olib borgan izlanishlari-alohida mavzu. Buni tasavvur etish uchun, birgina "Adabiyot va tarixiy jarayon" yoki "XX asr o'zbek adabiyoti manzalari" nomli kitobini birortasini qo'lga olish yetarli.

Ayni damda olimning "Mahmudxo'ja Behbudiy", "Cho'lpon", "Istiqlolni uyg'otgan shoir", "Usmon Nosir", "Usmon Nosirning so'nggi kunlari", "Maqsud Shayxzoda", "Fitrat", "Uch buyuk siymo" (Qodiriy, Cho'lpon, Oybek), "Oybek va Zarifa" kabi qator kitoblari kitobxonlar qo'liga yetib borgan.

Olim ulkan alloma adiblar - Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Hamzaning ko'p jildli akademik nashrlarini tayyorlash va nashr etishda ishtirok etgan. O'rta maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari uchun o'zbek adabiyotidan darsliklar yozgan. Olim asos solgan ma'rifiy-biografik, ilmiy-tadqiqot romanlar adabiyotimiz rivojiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi.

O'z ijodiy faoliyati davomida o'zbek adabiyotining betakror namoyondalaridan biriga aylangan adabiyotshunos olim, jamoat arbobi Naim Karimov

- 1985 yil - Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati
- 1993 - Filologiya fanlari doktori,
- 1994 - professor
- 1996 O'zbekistan Respublikasi fan arbobi
- 1999 «El-yurt hurmati» ordeni bilan sohibi bo'ldi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasida XX asr o'zbek adabiyotshunosligi, adabiy tanqidchiligi, san'atshunosligi va madaniyatshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz – murabbiy, yetuk olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, Naim karimov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan "O'zbek adabiyotshunsligining dolzarb masalalari" mavzusida halqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tganligi ham olim mehnatlarining e'tirofidir.

Anjumanda davlatimiz rahbarining Farmoniga ko'ra, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qo'shgan munosib hissasi, o'zining yorqin iste'dodi, keng qamrovli ijodiy, ilmy-amaliy faoliyati bilan halqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi, iste'dodi yosh olimlarni tarbiyalashdagi munosib hizmatlari hamda tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Naim Karimov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlanganligi olim mehnatlarining qo'shaloq e'tirofi bo'ldi.

Naim Fatixovich Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi Davlat mukofotlarini berish to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq adabiyot sohasida "Abdulla Qodiriy zamondoshlari" asari uchun Birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Naim Karimovning tadqiqotlari Turkiya, Frantsiya, Ozarbayjon va boshqa xorijiy mamlakatlarda katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

## *NAIM KARIMOV USTOZ VA HAMKASBLARI*

### *NIGOHIDA*

“Naim Karimov yaqin tariximizning o’qilmay qolgan yohud noto’g’ri o’qilgan sahifalarini qayta tiklashga xarakat qildi. Bu intilish uning ijodida, ayniqsa, 1991 yildan boshlab juda keng ko’lamda ko’rina boshladi. Masalan, o’sha kezlarda ommaviy bo’lgan “Fan va turmush” jurnalida “Narkompros ishi”, “CHo’lpon uchun kishan”, “Assalomu alaykum dorning og’ochi”, “Qodiriyning boshi-yangi yil sovg’asi”, “Tosh ekan boshim...” kabi maqolalari bosildiki, ularda ixcham shaklda bo’lsa-da adabiyotimizning shu paytgacha mutlaqo tilga olinmay kelgan jihatlari ochildi”.

**Ozod Sharaffiddinov  
O’zbekiston Qahramoni.**

“Azamat allomalar yoshi!. Pir deb faxrlansa arziydi. Balli, teleminoralardan oshirib, el-yurt uchun foydali kitoblar yozganga! Har so’zida, har faktida istiqloliy adolatni tiklaganiga! To’qsonning cho’qqisida turib ijodiy zavqlari va kuch-quvvat, g’ayratini saqlab, noma’lum dunyolarni ochish, yoshlarni ilm-fan, kashfiyotlarning yuksak ufqlarini egallashga chaqirish, atrofidagilarni doimo yozishu ixtirolargaga ilhomlantirish faqat noyob layoqatli odamlargagina nasib etadi”.

**Ibrohim G’ofurov.  
Adabiyotshunos olim, yozuvchi.**

“Muhtasham – ma’naviy xazina egasi bo’lgan Naim Karimov – ko’ngil odami. Badiiy ijod bilan shug’ullanib, ayrim she’rlar, hikoyalar, dramatik asarlar yozganidan xabarim bor. Xuddi shunday badiiy ijod tabiatini anglash, unga mehr-muhabbat sezimlari ilmiy asarlarining ayrim sahifalarida ham, hususan ijodkorning qalbiga, ijod jarayoniga tegishli o’rinlarda juda bilinadi, ko’zga yarq etib tashlanadi. Men Abdulla Qodiriy ijodini o’rganib kelayotgan soha mutaxassis sifatida Naim Karimovning “Abdulla Qodiriy zamondoshlari” kitobini juda qadrlayman. ...

Aslida o’tgan asrning 20-30 yillari ijodiy muhtitiga doir tadqiqotlarning ko’pchiligidagi Naim Karimovning bevosita aloqasi bor”.

**Bahodir Karimov.  
Filologiya fanlari doktori, professor,**

“Naim Karimov umrining ilmiy va ijodiy ishlar bilan faol m ashg’ul bo’lgan 70 yiliga nisbat bersak, har bir kitobu maqola xaftasiga e’lon qilinib turganining guvohi bo’lganmiz. Bunday katta ko’lam va tinimsiz zahmat ostidagi 80 dan ortiq kitob va ikki mingdan ziyod maqolaning ilmiy yukini tasavvur qilishning o’zi murakkab ish”

**Hamidulla Boltaboev  
Filologiya fanlari doktori, professor**

“Abdulla Qodiriy zamondoshlari” asari akademik Naim Karimov tomonidan so’nggi yillarda yaratilgan fundamental asarlardan biri, buyuk adib haqida to’laqonli ma’lumot beruvchi, qomusiy asardir.... Bu qomusni yaratish uchun Naim Karimov uzoq tayyorgarlik ko’rgan. Salkam yetmish yillik umri ushbu kitobda aks etgan voqealar, faktlar, tahlillar bilan bevosita bog’liq desak, xato qilmaymiz. U kishi 1955–1958 yillarda O’zbekiston davlat universitetining o’zbek adabiyoti ixtisosligi bo’yicha aspiranturada tahsil ola boshlagan kundan e’tiboran Qodiriy davriga taalluqli ma’lumotlarga to’qnash kelgan. Hamid Olimjon yoxud Oybek haqida yozadimi, baribir Qodiriy davri va uning zamondoshlari bilan bog’liq faktlarga duch kelavergan. Bundan salkam qirq yilcha oldin yozgan bir maqolasiga “Adib yaratgan bog’” deb sarlavha qo’ygandi. Oradan yillar o’tib akademik olimimiz bu bog’ning haqiqiy “bog’boni” ekanini yana bir karra isbotladi.

... Bu kitobni “bir asrlik tadqiqot” deb atash mumkin. Zero, Abdulla Qodiriy haqida bu nashrga kirgan ma’lumotlar salkam bir asr mobaynida yig’ilgan, o’rganilgan, tajribaga boy nigoh ila tadqiq etilgan. SHuning uchun Abdulla Qodiriy ijodi bo’yicha olib borgan tadqiqotlar ichida fidoyi adabiyotshunos olimning ishlari ulkan ahamiyatga ega va ishonchliligi bilan ajralib turadi.

**Jabbor Eshonqulov,**

**O’zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori,  
filologiya fanlari doktori, professor**

## **ADABIYOTLAR**

### **RASMIY XUJJATLAR**

1. O’zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san’at va me’morchilik sohasidagi Davlat mukofotlarini berish to’g’risida : O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 dekabr Farmoni [ adabiyot sohasida Karimov Naim Fatixovich “Abdulla Qodiriy zamondoshlari asari uchun”] // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2022. – 14 dek.

### **KITOBLAR**

2. Karimov Naim. Xamid Olimjon: shoir hayoti va ijodidan lavhalar. – Toshkent : Yosh gvardiya, 1979. – 248 b.

3. Karimov Naim. Oybek. – Toshkent : Yosh gvardiya. - 1985. – 200 b.

4. Karimov Naim. Oybek gulshanida qolgan g’unchalar: Oybekning tugallanmagan asarlari to’g’risida. – Toshkent: Fan, 1985. – 80 b.

5. Karimov Naim. Pushkin va o’zbek she’riyati. – Toshkent : Fan, 1988. – 79 b.

6. Karimov Naim. Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon. – Toshkent: Fan, 1991. – 84 b.

7. Karimov Naim. Usmon Nosirning so’nggi kunlari: hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar. – Toshkent : Sharq, 1994. – 256 b. – (Istiqlol fidoyilar)

8. Karimov Naim. Cho’lpon : ma’rifiy roman. – Toshkent : SHarq, 2003. – 464 b.

9. Karimov, N. Oybek va Zarifa. Muhabbat va sadoqat dostoni.  
– Toshkent : Yangi asr avlodi, 2005. – 136 b.
10. Karimov Naim. Maqsud Shayxzoda: ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: Sharq, 2010. –336 b

### VAQTLI MATBUOT NASHRLARI

11. Каримов, Н. Мавлоно Фитрат. Мусибатли йиллар овози : [Чўлпон ва Фитрат] / Н. Каримов // Фан ва турмуш. – 1988. – № 7. – Б. 8.
- 12 Каримов, Н. Чўлпон Пушкин таржимони // Ёш ленинчи. – 1990. –8 июнь.
13. Каримов, Н. Чўлпон учун кишан / Н. Каримов // Фан ва турмуш. – 1991. – № 10. – Б. 12-13, 20-21 ; № 11. – Б. 8-9.
14. Каримов, Н. Чўлпоннинг номаълум мухаммаси / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1992. – 17 янв.
15. Каримов, Н. Икки шунқор мушораси : [Fafur Fулом ва Чўлпон] / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1992. – 22 май.
16. Каримов, Н. Шекспир ва Чўлпон / Н. Каримов// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1992. – 24 июль.
17. Каримов, Н. Чўлпон. Хужумнинг тақдири : [маданиятимиз тарихидан ] / Н. Каримов // Нафосат. – 1993. – № 2. – Б. 26-28.
18. Каримов, Н. Чўлпон ва Боту. Империя қурбонлари / Н. Каримов // Ватан. – 1994. – 13-20 июль.

19. Каримов, Н. Абдулла Қодирий ва Чўлпон : [ Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллиги олдидан ] / Н. Каримов // Ватан. – 1994. – 7-14 сент.
20. Каримов, Н. “Кеча ва кундуз” борми? : [Чўлпоннинг романи ҳақида ] / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – 28 окт.
21. Каримов, Н. Яна Чўлпон ўлими ҳақида / Н. Каримов // Маърифат. – 1996. – 13 янв.
22. Каримов, Н. Ҳур фикр, ўткир қалам соҳиби / Н. Каримов // Ўзбекистон матбуоти. – 1997. – № 4. – Б. 16-18.
23. Каримов, Н. Истиқлол жарчиси / Н. Каримов // Халқ сўзи. – 1997. – 16 март.
24. Каримов, Н. Мададкор руҳ / Н. Каримов // Халқ сўзи. – 1997. – 24 июль.
25. Каримов, Н. Унутилган саҳифа / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1997. – 10 окт.
26. Каримов, Б. Ўзбек ёш шоирлари. Чўлпон // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1997. – 28 нояб.
27. Каримов, Н. Қалб таронаси [ Чўлпон шеърияти ] / Н. Каримов // Халқ сўзи, 1997. – 29 нояб.
28. Каримов, Н. Чўлпоннинг каптари / Н. Каримов // Миллий тикланиш. – 1997. – 7 дек.
29. Каримов, Н. Чўлпон гулшанидан шабадалар / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1998. – 17 апр.
30. Каримов, Н. Ҳамза ва Чўлпон / Н. Каримов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1999. – 18 июнь.
31. Каримов, Н. Чўлпон ва мусиқа / Н. Каримов // Китоб дунёси. – 2014. – 15 янв.

32. Karimov, N. Turkistonlik talabalarning taqdiri tafsilotlari /Naim Karimov // Yoshlik. – 2019. – № 9. – B.21-31.
33. Каримов, Н. Адибнинг мусаввир дўсти: [ Ойбек ва Ўрол Тансиқбоевнинг дўстлиги ] // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. –10 янв.
34. Каримов, Н. Ҳамид Олимжон шеъриятида ватан ва баҳт концепцияси // Ozbek tili va adabiyoti. – 2020. – № 1 . – Б. 85-90.
35. Унутилган хазина: [Москвадаги Шарқ музейида сақланаётган ўзбек санъати намуналари] // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 10 февр.
36. Шеър мажнуни : [ адиб Шукрулло ёди] // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. - 2020. – 31 июль.
37. Каримов Н. Умр бевафо, мардана ҳаёт абадий .. : [ Махмудхўжа Беҳбудийнинг жадидчилик харакатининг атоқли намоёндаси] // Миллий тикланиш. - 2020. - 4 ноябр.
38. Каримов Н.Ғайратий мактаби : [ Ўзбекистон халқ шоири Ғайратий ҳақида] // Янги Ўзбекистон. -2021. – 29 апр.
39. Каримов, Н. Берлиндаги ижодий кечаси : [Эркин Воҳидов ва Абдулла Ориповнинг Берлин университетидаги ижодий кечаси ] // Янги Ўзбекистон. – 2021.- 16 сент
40. Каримов, Н. Адабиёт-онгу қалбимиз қалқони / Наим Каримов билан суҳбат ; суҳбатдош Дилшод Каримов [мустақиллик ва жадидлар фаолияти] // Халқ сўзи. – 2022. – 26 авг.

41. Каримов, Н Тарихнинг мунгли саҳифаси:[ XX аср бошларида олмон юртида ўқиган - ўзбек ёшларининг фожеаси ] / Н. Каримов // Халқ сўзи. –2022. – 28 авг.

42. Каримов Н. Алишер Навоий образининг прототиплари : [ кино ва театрда Навоий сиймосини гавдаланиши] // Янги Ўзбекистон. – 2022. - 27 окт.

### **Naim Karimov ijodi haqidagi maqolalar**

43. Қосимов, Б. Чўлпон ҳақида роман : [ Н. Каримовнинг “Чўлпон” романи ҳақида] / Б. Қосимов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2004. – 29 окт.

44. Фофуров, И. Ҳар қанча фахрлансак, арзиди / Иброҳим Фофуров // Халқ сўзи. – 2022. – 24 нояб.

45. Олимлик қисмати : ёҳуд академик Наим Каримовнинг адабий ҳақиқатлари // Янги ўзбекистон. – 2022. – 10 дек.

46. Каримов, Б. Муҳташам маънавий хазина эгаси : [Наим Каримов таваллудининг 90 йиллиги ] / Баҳодир Каримов // Халқ сўзи. – 2022. – 10 декабрь.

Tuzuvchi : Sh. Shakirova